



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No11**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
4-noyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni .....	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari .....	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati .....	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi .....	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv .....	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini .....	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar .....	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish .....	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi .....	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish .....	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati .....	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish .....	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevena</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish .....	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari .....	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati .....	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari .....	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes .....	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar .....	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli .....	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli .....	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi .....	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi .....	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari .....	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri .....	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning .....	125
<b>Quvandikova Xadicha</b>	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	129
<b>Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li</b>	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish .....	135
<b>Raxmonova Nazokat Umaraliyevna</b>	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli .....	140
<b>Rustamova Nodira Rustamovna</b>	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari .....	145
<b>Sitora Toshmatova</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati .....	149
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi .....	153
<b>Toshpulatova Saida Kuzibaevna</b>	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish .....	158
<b>Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi</b>	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools .....	161
<b>Ulasheva Lobar</b>	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish .....	164
<b>Valiyeva Nargiza Athamboevna</b>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari .....	169
<b>Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi</b>	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar .....	173
<b>Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li</b>	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi .....	176
<b>Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich</b>	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati .....	182
<b>Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna</b>	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri .....	185
<b>Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi</b>	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi .....	189
<b>Ahmedova Nargiza Muzaffarovna</b>	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам .....	193
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна</b>	
Структура и стратегии развития предметных компетенций .....	197
<b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b>	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития .....	203
<b>Раупова Шохида Ахроровна</b>	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы .....	207
<b>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</b>	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы .....	211
<b>Сулейманова Нилуфар Камилловна</b>	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni .....	214
<b>Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi</b>	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari .....	218
<b>Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi</b>	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari .....	221
<b>Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna</b>	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari .....	224
<b>Abduxalilova Iroda Nozimxonovna</b>	

<p>O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda        "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari ..... 229  <b>Abirova Umida Nazarovna</b></p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars        mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari..... 232  <b>Adhamova Diyora Sanjar qizi</b></p> <p>Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va        tiklanish mexanizmlari tahliliy ..... 239  <b>Tangriyev Abdukarim Tovashevich</b></p> <p>Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini        takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati..... 244  <b>Hafizov Shahriyor Shavkatovich</b></p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari ..... 248  <b>Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi</b></p> <p>Axborotning gnoseologik mohiyati..... 256  <b>Kamolova Munajatxon Jaloldinovna</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari ..... 259  <b>Mamatova Aziza Bo'ribojevna</b></p> <p>Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari .... 262  <b>Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich</b></p> <p>Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini        korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi..... 267  <b>Maxkamova Dilafuz Aliyevna</b></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv ..... 271  <b>Normamatova Kamola Gulmamat qizi</b></p> <p>O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida)..... 274  <b>S. Sh. Azamatova</b></p> <p>Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari ..... 277  <b>Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi</b></p> <p>Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari..... 282  <b>Xolova Mohigul Shavkatovna</b></p> <p>Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish..... 287  <b>Xudoyberganov Atham</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish ..... 291  <b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi</b></p> <p>Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление ..... 295  <b>Кадирова Наргиза Азаматовна</b></p> <p>Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов        на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) ..... 298  <b>Мамырбаева Дина</b></p> <p>Структура и стратегии развития предметных компетенций ..... 304  <b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b></p>	<p>229</p> <p>232</p> <p>239</p> <p>244</p> <p>248</p> <p>256</p> <p>259</p> <p>262</p> <p>267</p> <p>271</p> <p>274</p> <p>277</p> <p>282</p> <p>287</p> <p>291</p> <p>295</p> <p>298</p> <p>304</p>
--	---

# XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH BO'YICHA JAHON TAJRIBASI

Ergasheva S. T.

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholashda xorijiy davlatlar tajribasi yoritilgan. Shuningdek, PIRLS xalqaro tadqiqoti va mamlakatlarning undagi ishtiroki, o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda rivojlangan mamlakatlarning ta'lim samaradorligiga erishish omillari tahlil qilingan. Bundan tashqari, aniqlangan muammolar bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga asosanib, o'qish savodxonligini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha tahliliy xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, xalqaro baholash, PIRLS, ePIRLS, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, matn, nutq.

**Abstract:** This article examines the experience of foreign countries in assessing the reading literacy of primary school students. It analyzes the PIRLS international study and the participation of countries, the problems that arise during the learning process, and the factors contributing to achieving educational effectiveness in developed countries. In addition, foreign experience regarding the identified problems has been studied. Based on the conducted research, analytical conclusions are presented concerning the development of reading literacy.

**Key words:** reading literacy, international assessment, PIRLS, ePIRLS, analysis, synthesis, comparison, generalization, text, speech.

**Аннотация:** В статье освещается опыт зарубежных стран в оценке читательской грамотности младших школьников. Анализируются международное исследование PIRLS и участие стран в нём, проблемы, возникающие в процессе обучения, а также факторы, способствующие достижению образовательной эффективности в развитых странах. Кроме того, изучен зарубежный опыт по выявленным проблемам. На основе проведённых исследований представлены аналитические выводы о направлениях развития читательской грамотности.

**Ключевые слова:** читательская грамотность, международная оценка, PIRLS, ePIRLS, анализ, синтез, сравнение, обобщение, текст, речь.

## KIRISH

PIRLS xalqaro tadqiqoti o'quvchilarning matnni o'qib tushunishlari, yangidan-yangi g'oyalar, boshqa madaniyatlar va turli mamlakatlar haqida tasavvurga ega bo'lishlariga imkon beradigan qobiliyat haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bundan tashqari, u shaxsni hamda jamiyatni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, shuningdek, "biror harakatni bajarish uchun o'qish" vositasi sifatida yozma matnlar va boshqa turdagi ma'lumotlar ustida mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bunday yondashuv bugungi jamiyatda yanada yaqqol sezilib, jamiyat o'quvchidan o'qish orqali olgan ma'lumotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etmoqda. Endilikda o'quvchilardan ravon o'qish va asosiy tushunish ko'nikmasi orqali tushungan yoki idrok etganlarini yangi vaziyatlar yoki loyihalarga nisbatan qo'llay olish qobiliyatini namoyon etish talab etilmoqda.

O'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish hamda ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qilish qobiliyatidir.

PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqoti – Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – ga qo'shimcha



tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti IEAning Boston kollejida joylashgan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan, shuningdek, IEA xalqaro assotsiatsiyasining Amsterdam va Gamburg shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qish savodxonligining rivojlanishi har bir o'quvchining o'sib-ulg'ayishi, ta'lim olishi va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) qariyb 60 yil mobaynida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o'qib o'rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilib kelmoqda. Ushbu assotsiatsiya (IEA) turli ta'lim tizimlariga ega ishtirokchi mamlakatlarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurroq tushunish maqsadida, 1960-yillarda ta'lim sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qiluvchi hukumat agentliklari va milliy tadqiqot institutlaridan tashkil topgan mustaqil xalqaro tashkilot sifatida faoliyat yuritadi.

Har bir PIRLS baholash tadqiqoti ota-onalar yoki vasiylar, maktablar, o'qituvchilar, mamlakatlar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan qator so'rovnomalar hamda o'quvchilarning o'qib o'zlashtirish ko'nikmalarini baholashdagi o'zgarishlarni zamonaviy tarzda tahlil qiladigan ushbu an'anani davom ettiradi. O'quvchilarning o'qishni o'rganish va ta'lim olishdagi imkoniyatlari haqidagi so'rovnoma ma'lumotlari erishilgan natijalarni talqin qilish uchun muhim axborot manbasi sifatida xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

PIRLS-2021 baholash qamrov doirasi dastlabki ikkita bo'limdan iborat: PIRLS-2021 o'qish savodxonligi qamrov doirasi va PIRLS-2021 so'rovnomalar qamrov doirasi. O'qish savodxonligi qamrov doirasi o'quvchilarning o'qib tushunishlaridan ko'zlangan ikki asosiy maqsad – badiiy tajriba orttirish va axborotni olish hamda undan foydalanish, shuningdek, to'rtta tushunish jarayoni – topish, xulosalar chiqarish, uyg'unlashtirish va baholash asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholashga xizmat qiladi. So'rovnomalar qamrov doirasida esa PIRLS-2021 so'rovnomalarida yoritilgan mavzular qamrab olingan.

Uchinchi bo'limda PIRLS-2021 xalqaro tadqiqotining baholash mezonlari haqida ma'lumot beriladi. So'nggi 20-yil mobaynida o'quvchilarning o'qib tushunish darajalarini baholovchi PIRLS tadqiqoti natijalari, shuningdek, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi muhitlarga oid so'rovnoma ma'lumotlari bilan birgalikda tahlil qilinib, tadqiqotchilarga dunyo bo'ylab o'quvchilarning o'qish savodxonligini takomillashtirish borasida qimmatli xulosalar olish imkonini berdi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya yuqori natijalarni qayd etgan bo'lib, ayniqsa rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnini o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilikni qo'lga kiritgan. Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan izohlanadi: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi; ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati; bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganib olganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasining yuqoriligi. PIRLS-2021 xalqaro tadqiqoti 2001, 2006, 2011 va 2016-yillarda o'tkazilgan baholashlarning mantiqiy davomi bo'lib, dastur doirasidagi beshinchi siklni tashkil etadi. Har bir keyingi tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar soni ortib bormoqda. PIRLS-2021 xalqaro tadqiqotida taxminan 70 ga yaqin mamlakat ishtirok etgan bo'lib, ularga benchmark ishtirokchilar hamda 2001-yildan buyon avvalgi sikllarda qatnashgan davlatlar kiradi.

PIRLS va ePIRLS xalqaro tadqiqotlari doirasida beriladigan matnlar o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish guruhi hamda tadqiqot koordinatorlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Topshiriqlarda beriladigan matnlar va veb-saytlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- aniqlik va mantiqiy bog'liqlik;
- mazmun jihatidan barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun moslik;
- o'quvchilar uchun qiziqarli va jozibadorlik;
- keng tushunish jarayonlarini baholash uchun yetarli asos.

Baholash jarayonida qat'iy vaqt chegaralarining belgilanishi o'quvchilar uchun ma'lum cheklovlar yaratadi, chunki ulardan katta hajmdagi matnini o'qib chiqib, unga oid savollarga javob berish talab etiladi. PIRLS tadqiqotida matnlarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, ularning hajmi odatda 500 tadan 800 tagacha so'zni tashkil etadi. Shunga qaramay, matn hajmi o'zgarishi mumkin, chunki uning boshqa jihatlari ham o'quvchilarning o'qib tushunish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqot doirasida qo'llaniladigan matnlarni sara-

lashda ishtirokchi mamlakatlarning o'ziga xos madaniy va til jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Buning asosiy maqsadi – barcha mamlakatlar uchun bir xil darajada mos bo'lgan baholash materiallarini ta'minlashdir. 2011-yilda TIMSS va PIRLS baholash sikllari birgalikda ishlab chiqilib, ishtirokchi mamlakatlarga boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajalari haqida keng qamrovli ma'lumotlar olish imkonini berdi. Shu bilan birga, so'rovnomalarni yangilash va ularni PIRLS hamda TIMSS dasturlari bilan muvofiqlashtirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari, 2011-yilda IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) xalqaro assotsiatsiyasi ishtirokchi mamlakatlarga boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida PIRLS baholash qamrov doirasini kengaytirdi.

PIRLS-2016 xalqaro tadqiqotining ikkinchi baholash davrida PIRLS o'qish savodxonligi bo'yicha yana 20 ta matn kiritildi. Ushbu matnlar murakkablik darajasi jihatidan PIRLS baholash talablariga nisbatan nisbatan yengilroq bo'lib, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini yanada kengroq qamrab olishga imkon berdi. Shu bilan birga, 2016-yilda ePIRLS tadqiqoti joriy etilib, unda zamonaviy onlayn o'qish savodxonligi masalalariga e'tibor qaratildi. Ma'lumki, internet o'quvchilarning ma'lumot olish manbai hamda maktab fanlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishda asosiy vosita sifatida muhim o'rin tutadi. ePIRLS tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy va ijtimoiy sohalariga oid mavzularni o'z ichiga olgan, maktabda o'qitiladigan fanlarga yaqinlashtirilgan qiziqarli va innovatsion o'quv imkoniyatlari bilan ta'minlaydi.

## XULOSA

Har bir baholash sikli o'tkazilishi bilan PIRLS tadqiqotlari qamrov doirasining yangilanib borilishi ishtirokchi mamlakatlarga o'zlarining yangi g'oyalari hamda ularning o'quv dasturlari, standartlari, qamrov doiralari va yo'riqnomalari haqidagi so'nggi ma'lumotlarni o'rtoqlashish imkonini beradi. Bu esa qamrov doiralari ta'limiy jihatdan mos bo'lishiga sharoit yaratib, har bir o'tkaziladigan baholash jarayonining bir-biriga bog'liqligini oshiradi hamda qamrov doiralari, topshiriqlar va tartiblarning yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

PIRLS-2021 xalqaro tadqiqotida qamrov doiralari PIRLS-2021 ensiklopediyasida keltirilgan ko'rsatmalar, o'quv tadqiqoti hamda ishtirokchi mamlakatlardan tanlab olingan milliy tadqiqot koordinatorlari (NRC) tomonidan berilgan taqrizlar yordamida to'plangan ma'lumotlardan foydalanib yangilandi. PIRLS-2021 ekspertlar qo'mitasi, o'qish savodxonligini rivojlantirish guruhi (Reading Development Group, RDG) va so'rovnomalarni tuzuvchi guruh (Questionnaire Development Group, QDG) ham o'zlarining muhim g'oya va yo'nalishlari bilan yaqindan yordam berdi. Qamrov doiralari chop etilishidan avval milliy tadqiqot koordinatorlari hamda ekspertlar guruhi tomonidan qayta ishlab chiqildi va ko'zdan kechirildi. Endilikda o'quvchilardan ravon o'qish va asosiy tushunish ko'nikmalari orqali tushungan yoki idrok etganlarini yangi vaziyatlar yoki loyihalarga nisbatan qo'llay olish qobiliyatini namoyon etish talab etilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. Afflerbach, P., & Cho, B.-Y. (2009). Identifying and describing constructively responsive comprehension strategies in new and traditional forms of reading. In S.E. Israel & G.G. Duffy (Eds.), *Handbook of Research on Reading Comprehension* (pp. 69–90). New York, NY: Routledge.
3. Leu, D., Kinzer, C., Coiro, J., Castek, J., & Henry, L. (2013). New literacies: A dual-level theory of the changing nature of literacy, instruction, and assessment. In D.E. Alvermann, N.J. Unrau, & R.B. Ruddell (Eds.), *Theoretical Models and Processes of Reading* (6th ed., pp. 1150–1181). Newark, DE: International Reading Association.
4. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368 b.
5. Stiggins, R. (1982). An analysis of the dimensions of job-related reading. *Reading World*, 21(3), 237–247.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.
7. Tashkenbayeva U.N. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma. – Toshkent, 2020-yil. – 65 b.
8. Tashkenbayeva U.N. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma. – Toshkent, 2020-yil. – 64 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.